



O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA TASAVVUF ALLOMALARI  
OBRAZINING SHAKLLANISHI

**Buriyeva Shaxnoza Alisher qizi**

*Tayanch doktorant Termiz davlat universiteti*

*UDK:2-587:821.512.133.09*

*ORCID: 0009-0007-6994-616X*

*[sh.b.alisherovna@gmail.com](mailto:sh.b.alisherovna@gmail.com)*

**Annotatsiya:**

*Ushbu maqolada tasavvuf allomalarining mumtoz adabiyotda shakllanishi haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, shayxlar, so'fiylar, valiylarning hayoti, tariqati va ta'limotining mazmun-mohiyati haqida fikrlar keltirilgan tazkiralar va badiiy asarlar nomlari keltirilib, Navoiy asarlarida tasavvuf allomalari haqida yozilgan fikr- mulohazalar tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *so'fiylar, na't, tabaqoti so'fiya, manaqib, suluk, Boyazid Bistomiy, Hoja Bahouddin Naqshband*

**ФОРМИРОВАНИЕ ОБРАЗОВ СУФИЙСКИХ УЧЕНЫХ В УЗБЕКСКОЙ  
КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ**

**Аннотация:***В данной статье рассматривается формирование образов суфийских ученых в классической литературе. Также приводятся названия tazkire (биографических антологий) и художественных произведений, содержащих сведения о жизни, тарикате (духовном пути) и сути учений шейхов, суфиев и святых. Анализируются взгляды и мнения о суфийских ученых, изложенные в произведениях Алишера Навои.*

**Ключевые слова:** *суфии, наат, табакати суфия, манакиб, сулук, Баязид Бистами, Ходжа Бахауддин Накибанд.*

**THE FORMATION OF SUFI SCHOLARS' IMAGES IN UZBEK CLASSICAL  
LITERATURE**

**Abstract:***This article discusses the formation of Sufi scholars' images in classical literature. It also mentions the titles of tazkiras (biographical memoirs) and literary works that provide insights into the lives, tariqat (spiritual paths), and the essence of the teachings of sheikhs, Sufis, and saints. Furthermore, the article analyzes the views and opinions about Sufi scholars expressed in the works of Alisher Navoiy.*

**Keywords:** *Sufis, na'at, tabaqat-i sufiya, manaqib, suluk, Bayazid Bastami, Khoja Bahauddin Naqshband.*





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'zbek mumtoz adabiyotida tasavvuf juda katta o'rin egallaydi. Islom dini yoyilishi bilan ijod ahli uchun shariat peshvolari, shayxlar, so'fiylar, ilm ahli asarlarda eng ko'p tilga olinadigan ideal qahramonlarga aylandi. Asarlarda Allohga bag'ishlangan hamd va payg'ambarimizni madh etuvchi na't qismidan so'ng odatda tasavvuf peshvolari yoxud ijodkor qaysi tariqatga ergashgan bo'lsa ayni o'sha yo'lining ulamolari tilga olinardi. Jumladan, Alisher Navoiy "Xamsa" sining ilk dostoni "Hayrat ul-abror" da o'zi masub bo'lgan tariqat asoschisi Bahouddin Naqshband va u kishining o'rinbosari Xoja Axror Valini tavsiflaydi. Ma'lumki, Navoiy naqshbandiy tariqatiga ergashgan edi. Uning bu yo'ldagi piri shayxulislom Abdurahmon Jomiy bo'lgan.

Navoiy ijodi davomida shayxlar va so'fiylar ta'limotini juda chuqur o'rganib tahlil qilgan. Buning isbotini "Nasoyim ul muhabbat" tazkirasidagi tasavvuf allomlari tasvirida ham ko'rish mumkin. Unga bu tariqatdagi bunyodkorlik g'oyasi ma'qul kelgan. Bahouddin Naqshbandning ta'limotida Haqqa yaqinlashishni istagan inson so'fiy, shayx, valiy bo'lishidan qat'iy nazar halol mehnat qilib, hunar o'rganishi, o'ziga va o'zgalarga naf'i tegishi lozimligi uqtiriladi. Navoiy Bahouddin Naqshband haqida dastlab "Badoye ul-bidoya" devonidagi "Desang, xilvatim anjuman bo'lmasun" misrasi bilan boshlanadigan qit'asini yozgan bo'lsa-da, "Hayrat ul-abror" da unga bag'ishlab qasida shaklida alohida bob yozgan. "Naqshband esa joniga ranju mashaqqat naqshni chizar, maqsad bu orqali dunyoning, hayotning foniyluk naqshini chizish edi. Uning joni o'sha naqsh makoni bo'lgani sababli unga naqshdan boshqa hamma narsalar foniyl edi". Uning aqidasi ko'ra mehnatsiz biror narsaga erishgandan qashshoq bo'lgan ma'qulroqdir. Bu tariqatga ergashgan solikning tunu kun toatibodat bilan mashg'ul bo'lib, chillada o'tirishi, xilvatga chekinishi, odamlardan ayri yashashi maqbul emas edi.

Naqshbandiydan so'ng Xo'ja Ahror Valiy uning yo'lini davom ettirdi. "Alloh so'zlarini odamlarga talqin qilib berar ekan, uning shoh ham, gado ham teng edi. Uning sha'niga nog'oralarni chalish navbati kelganda esa navbat bilan shohlar uni ziyorat qila boshlar edilar. U kiyimini aldash maqsadida o'zgartirmaydi, ipakni oddiy palosdan farq etmaydi. Uning suhbatida hech shak-shubhasiz allaqancha ko'zga ko'rinmas go'zal ra'nolar ham bordir". Ko'rinib turibdiki, Xo'ja Ahror Valiyning tasavvuf olamidagi mavqeyi juda yuksak qadrlangan. Agar biror bir shoh yoki sultonga u tarafidan maktub yozilsa, shox darhol uni ko'ziga surtib, so'zlarini qimmatbaho tosh, ma'nosini esa boshiga toj deb bilgan. U ham Naqshbandiy kabi insonlar orasida yurib, ularni faollikka, vatanni sevishga, mehnat qilib, hunar o'rganishga da'vat etib, o'z davri kishilari hayotini jonlantirgan.

Shuningdek, tasavvuf allomalarining hayoti, ularning ta'limoti va tariqatining mazmun maqsadi o'rganilishi o'z davridayoq boshlangan edi. Tasavvuf allomalari haqidagi dastlabki ma'lumotlar tasavvufiy-falsafiy asarlar, tabaqoti so'fiya kitoblari, manoqib kitoblari va tazkiralarda keltirilgan. Usmon Turarning fikriga ko'ra, tabaqoti so'fiya asarlari mashhur mutasavvufning hayoti haqidagi hikoyatlardan, turli fikrlardan, ularning hikmatlari, tasavvufiy martabalaridan, karomatlaridan so'z yuritadi. Bu kabi asarlarda roviylarga oid ma'lumotlar berilganligi tufayli uslubiy jihatdan hadis ilmiga o'xshaydi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Manoqib asarlarda esa shayxlarning faoliyatidan, xalifalaridan, tariqatlaridan hikoya qilish barobarida asli yo‘q mubolag‘alar ham uchraydi. Ushbu asarlar orqali tasavvuf allomalarinig obraz sifatida shakllanishi ular haqidagi hayotiy voqealar, rivoyatlar, ilmiy-nazariy qarashlar bilan bog‘liqligi anglashiladi. Jumladan, Abdurahmon Sullamiyning “Tabaqatus so‘fiya”, Abdulloh Ansoriyning “Manozilus soirin”, Faxriddin Ali Safiyning “Rashahotul aynil hayot”(nashbandiya mashoyixi haqida), Ahmadi Afloqiyning “Manoqibul orifin” (mavlaviya tariqati ahllari haqidagi risola) Farididdin Attorning “Tazkirat ul-avliyo”, Abdurahmon Jomiyning “Nafahatul uns min hazarotil quds”, Alisher Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat”, Muhammad Siddiq Rushdiyning “Tazkirat ul-avliyoyi turkiy” kabi kitoblari tasavvuf vakillari haqida ma‘lumot beruvchi ilk ilmiy asarlardir. Bundan tashqari, tasavvuf tarixiga bog‘liq ta‘rix, shohrangiz, qomus va sayohatnomalar ham ushbu mavzuga oid tushunchalarni tavsiflashda yordam beradi.

Shuningdek, Alisher Navoiyning “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” , “ Xamsat ul-mutahayyirin”, “Munshaot” , Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlari so‘fiylar obrazi bir qancha o‘rinlarda uchraydi. Jumladan, “Xamsa” asaridan o‘rin olgan dostonlardagi fikr, g‘oyaning tasdiqlash uchun keltirilgan aksariyat hikoyatlardagi qahramonlarning deyarli barchasi tasavvuf vakillaridir. Ular bir-biridan qaysi tariqatga mansubligi, sulukdagi mavqeyi hamda kelib chiqishiga ko‘ra farq qilgan.

Navoiy “Xamsa” da keltirilgan so‘fiylarning hayoti haqida “Nasoyim ul muhabbat min shamoyim ul futuvvat” tazkirasida to‘liq ma‘lumot beradi. N.N.G‘afforovning izlanishlariga ko‘ra “Xamsa” da ifodalangan o‘n ikki nafar so‘fiy obrazining barchasi “Hayrat ul-abror” da uchraydi. Tasavvuf vakillarining kelib chiqishi, tasavvufdagi mavqeyi jihatidan o‘z sulukiga ega so‘fiylar shayx Boyazid Bistomiy, shayx Suxravardiy, Xoja Bahouddin Naqshbandlardan iborat. Shuningdek, Xojagon Naqshbandiya suluki shayxlari sifatida Xoja Muhammad Porso, Xoja Abu Nasr Porso, Xoja Ubaydilloh Axror va Abdurahmon Jomiy nomlari ham tilga olingan.

“Hayrat ul abror” dostonida iymonning olti jihati ta‘riflangach, Shayx Boyazid Bistomiy va uning muridi haqida hikoyat keltirilgan. Boyazid Bistomiy g‘amgin holda o‘tirganida shogirdi undan bu holining sababini so‘raydi.

Key falak avjida xiroming sening,  
Arsh fazosi uza goming sening,  
Ko‘nglungga ne ishdin ekin bu taab,  
Bu taabingg‘a ne ish erkin sabab?

U ko‘z yoshi to‘kib, -Bu g‘am shunchalik yomonki, butun borlig‘imni xarob qiladi. Atrofdam odamlar bisyor. Ammo o‘zini tanigan, yuragingga yaqin odam yo‘q! – deya javob beradi.

Har kishiga xush ko‘rinur o‘z ishi,  
Bir kishi yo‘qkim, desa bo‘lg‘ay kishi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Olamda kimki bor, hamma bu g'am tig'idan afgor, bu motamga giriftor. Ushbu hikoyatda Navoiy shayxning iztiroblari, dardlarini tasvirlar ekan hayotining so'nggi daqiqalarida ham xudodan iymonini mustahkam qilishini iltijo qiladi.

Ma'lumki, Sharqda "sulton ul orifin" nomi bilan tanilgan Abuyazid Tayfur Iso o'g'li Sarishon o'g'li Bistomiy Erondagi tayfuriya tariqatining asoschisi hisoblanadi. Uning ta'limotiga ko'ra haqiqiy so'fiy bu dunyoga oid butun istaklaridan voz kechib, xayoli va zikrini Olloh yodi bilan band qiladi. Haqqa yaqinlashib, u bilan birlashib ketish uchun esa zikr holatida o'zligini unutishi, ilohiy ishqdan mast bo'lishi kerak. Bu holatni u fano deb ataydi. "Boyazidning shogirdi Abu Muso dedikim, Boyazid dediki, Alloh taoloni tush ko'rdum, so'rdumki, bor Xudoyo, yo'l senga ne nav'dur? Dedikim, o'zungdinkim o'ttung, menga yetting!" Ya'ni Tangriga yetishadigan yo'l o'zingdan o'tadi. Inson o'zligini unutib, ilohiy ishq bilan mast bo'lganda xudo uning qalbida ekanligini anglaydi. Aslini olganda, Boyazid Bistomiyning fikricha, inson bu jarayonda o'zligini tark etib, ilohiylikka singib ketadi va Ollohnning sifatlarini qabul qila boshlaydi. Shayxning bu ta'limoti xaloyiq orasida yaxshi qarshilanmadi, hatto, "Haqiqatda ham men xudoman, mendan tashqarida xudo yo'q" (inna innalloh lo ilaha illo ano) degan fikri sababli "kofir" deya yetti marotaba ona shahridan haydab yuboriladi.

Adabiyotning ham tasavvufning ham o'rganish obyekti inson va axloqdir. Inson uchun qayg'urish, uning ma'naviy kamolotini o'ylash tasavvufning o'zak masalasi bo'lib kelgan. Tasavvuf ahli uchun insonning haqiqati – Qur'oni Karim, Qur'onning haqiqati esa komil insondir. Shuning uchun ular inson qismatiga tegishli har bir masalani muqaddas kitobimiz ko'rsatma va talablaridan kelib chiqib hal qilganlar. Bir necha tadqiqotchilarning insonga nisbatan komil atamasini ilk bor Boyazid Bistomiy qo'llaganligini ta'kidlashadi. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqulning fikriga ko'ra Boyazid Bistomiy Olloh yo'lida ilohiy haqiqatga erishgan orifni "al inson al komil" deb ataydi. U shunday yozadi: "Boshqa bir necha tadqiqotchilarning fikriga ko'ra mazkur iborani birinchi bo'lib Shayxi Kabir Muhiyiddin al-Arabiyy tadbiq qilgan. Uning talqinida komil inson fazilatli insonlardan ham favqulotda fazilatrog' (xusus al xusus) bo'lgan Haq oshig'i va haqiqat g'avvosidir."

"Hayrat ul abror"da keltirilgan hikoyat voqealari shayxning hayotidan olingan bo'lib, xuddi shunga o'xshash voqea Xoja Ori ar-Revgariyning "Orifnoma" asarida ham keltirilgan. Unga ko'ra: "Va minho: dinning asli hilmidir. Va hilmning asli- sabrdur. Abu Yazid Bistomiy jonini haqqa taslim qilayotgan paytda yig'lab shunday degan: "Uch xatarning orasida qolganman. Biri uldurkim, gunohlar orasidamen, bilmasmankim, Alloh alarni mag'firat qilg'aymi yo yo'q. Ikkinchisi, toatlar orasida qolganmen, bilmasmankim, Alloh alarni qabul qilarmi yo yo'q! Va shunday bir shohning sharaf qurbatida qoldim, bilmasmankim, o'ziga chorlagaymu, va yo haydab, quvib solgay". Ushbu hikoyatlar orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, mumtoz adabiyotda yaratilgan asarlarda tasavvuf shayxlari va valiyilar obrazining qo'llanilishi ularning faoliyati haqida shunchaki ma'lumot emas, balki ibrat va komillik talqini sifatida ahamiyat kasb etgan Boyazid Bistomiyning hayoti va ta'limoti haqida ma'lumot beribgina qolmay, uning tasavvufiy qiyofasini obrazli tavsiflaydi.





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Fuat Ko'prulu.Turk edebiyatinda ilk mutasavviflar.Turk tarih kurumu basimevi-Ankara.1976.-556 s.
- 2.Farididdin Attor. "Tazkirat ul-avliyo" asari muqaddimasidan.-464 b
- 3.Fatma Kopuz Cetinkaya. Feriduddin Attar ve bir gazelinin incelemeesi.28
- 4.Homidiy.H.Tasavvuf allomalari."Sharq".:Toshkent-2004. Muqaddima.-208b
- 5.Komilov.N.Tasavvuf.-T.: "Movarounnahr".2009.-447 b
- 6.Usmon Turar. Tasavvuf tarixi.-T.: "Istiqlol"1999.-180 b
- 7.G'afforov Nodir.Alisher Navoiy "Xamsasi"da so'fiylar timsoli.Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya.-T.:1999

